

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA ICHKI AUDIT XIZMATINING TAKOMILLASHTRISH

*Asrayeva Munisa*

*International school of finance and technology institute magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy nazoratida ichki audit xizmatining takomillashtirilishi masalasi yoritilgan. Maqolada ichki auditning davlat boshqaruv tizimidagi ahamiyati, uning moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda o'rni va davlat budgetining to'g'ri ishlatalishini ta'minlashdagi roli ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ichki audit xizmatining zamonaviy tendensiyalari, xalqaro tajriba va standartlarga mos ravishda uning faoliyatini yaxshilash uchun zarur bo'lgan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Maqola ichki auditni samarali tashkil etish uchun tavsiyalar va amaliy yo'riqnomalar bilan to'ldirilgan bo'lib, davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishga qaratilgan muhim qadamlarga to'xtaladi. Mazkur izlanish ichki audit tizimining kuchaytirilishi va uning davlat boshqaruvida yangi yuksakliklarga erishishidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** audit; ichki audit; rivojlanish; mexanizm, moliyaviy nazorat, tashqi audit, ichki audit, ichki audit xizmati bo'limi yig'ma hisoboti, ichki audit natijalari, ustav, kuzatuv kengashi, bo'lim boshlig'i, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorati tizimi mamlakat iqtisodiyoti va davlat boshqaruvining samarali ishlashi uchun alohida ahamiyatga ega. Davlat byudjeti va moliyaviy resurslarning to'g'ri va samarali ishlatalishi, davlat xizmatlarining sifatli ko'rsatilishi, shuningdek, moliyaviy va iqtisodiy xavf-xatarlarni minimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizimning samarali ishlashi uchun ichki audit xizmati katta ahamiyat kasb etadi. Ichki auditning asosiy vazifalari moliyaviy hisobotlarning to'g'riliqi va aniqligini ta'minlash, moliyaviy resurslarning samarali va maqsadga muvofiq ishlatalishini nazorat qilish, tashkilotning ichki nazorat tizimini mustahkamlashni asosiy vazifa sifatida belgilaydi.

Biroq, global iqtisodiy o'zgarishlar, yangi texnologiyalar, xalqaro moliyaviy standartlar va audit usullarining rivojlanishi bilan ichki audit xizmati ham doimiy ravishda takomillashtirishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasi ichki audit tizimining

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

samaradorligini oshirish, uning xalqaro tajribalarga asoslangan ilg‘or usullardan foydalanishini ta‘minlash zarurati mavjud. Bu, ayniqsa, davlat byudjeti va moliyaviy resurslarining to‘g‘ri boshqarilishini kafolatlash, korrupsiyaga qarshi kurashishda, shuningdek, davlat organlarining faoliyatini shaffofligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.


Ichki audit xizmatining bugungi holati, uning mamlakat iqtisodiyoti va davlat boshqaruvida o‘rni, hamda tizimdagi mavjud kamchiliklar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ichki auditni takomillashtirishning zamonaviy usullari, xalqaro tajribadan foydalanish va audit faoliyatini samarali tashkil etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqola ichki auditning samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar, amaliy yondashuvlar va texnologik yangiliklarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli tahlilni taqdim etadi. Ushbu izlanish ichki audit xizmati tizimining mustahkamlanishi va uning davlat moliyaviy nazoratida yangi yuksakliklarga erishishidagi ahamiyatini izohlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori yurtimizda hisob siyosatida yangi sahifa ochildi. Bu jarayonlar O‘zbekiston korporatsiyalari faoliyati ustidan ichki nazoratni tashkil etishda muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilishning boshqa talablarini ilgari suradi.

Mamlakatdagi korxonalar ichki audit tizimining asosiy vazifasi –maxsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va tan narxini pasaytirish yo‘llarini izlab topishdir. Ichki auditor yana korxonaning mehnat unumdorligini va samaradorligini oshirish bo‘yicha maslaxatlar berishi kerak. Iqtisodiy tizimning buzilishini tekshirish ko‘p mehnat talab qiladigan auditdir. Bunda korxona moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari o‘rganiladi. Ichki auditor korxonada u yoki bu rivojlanish yo‘nalishini ma’qullashi yoki ma’qullamasligi mumkin. Ichki audit maqsadi korxona xodimlarining qonun hujjatlariga, me’yoriy hujjatlarga va kasb faoliyati standartlariga rioya etishini nazorat qilish, tamonlar manfaatlari o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etish, korxona amalga oshirayotgan operatsiyalarning xususiyatlari va ko‘lamlariga mos ishonchlikni ta‘minlash xamda korxona faoliyatidagi xatarlarni kamaytirish yo‘llaridan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ichki audit qonun va me’yoriy hujjatlarga asosan tashkil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2006

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1**

yil 27 sentyabrdagi PQ-475-son qaroriga, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga muvofiq aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so‘mdan ortiq bo‘lgan korxonalarda ichki auditni tashkil etishga qo‘yiladigan yagona talablarni hamda uning ishini tashkil etishning metodologik asoslarini belgilash maqsadida «Korxonalardagi ichki audit xizmati to‘g‘risida Nizom» qabul qilindi. Hozirgi kunda ushbu Nizom xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ichki auditni tashkil qilish tartibi ko‘rsatilgan me’yoriy hujjat hisoblanadi.



**1-rasm. Mikrodarajadagi nazorat tizimi**

Ichki audit bo‘limi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, vazirlik Nizomi va vazirlikning ichki me’yoriy hujjatlari talablariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu bo‘lim korxonaning tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi va o‘z vakolati doirasidagi masalalar yuzasidan korxona rahbariga bo‘ysunadi va hisobot beradi. Shuningdek, bo‘lim korxonada ichki auditorlik nazoratini o‘tkazish, shuningdek, korxona ichki nazorat tekshiruvlari rejali va ichki audit natijalari bo‘yicha hisobotlarini mustaqil ravishda

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1**

tayyorlaydi. Bizningcha, korxonalar ichki audit xizmati bo‘limining asosiy vazifalari, funksiyalari va huquqlari quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

### 1-jadval

#### Ichki audit bo‘limining asosiy vazifa va funksiyalari hamda huquqlari

Bo‘limning asosiy vazifalari	Bo‘limning asosiy funksiyalari	Bo‘limning asosiy huquqlari
<b>I.</b> Korxona kuzatuv kengashini ishonchli axborot bilan ta’minlash va ichki auditorlik tekshiruvlari natijalari bo‘yicha kompaniya faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash.	<b>I.</b> Korxonaning kuzatuv kengashi tomonidan har yili tasdiqlanadigan rejaga muvofiq ichki nazorat tekshirishlarini amalga oshirish. <b>II.</b> Korxonaning tarkibiy bo‘linmalariga buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda uslubiy yordam ko‘rsatish, ularga moliyaviy, soliq, bank va boshqa qonunchilik masalalari bo‘yicha maslahat berish.	<b>I.</b> Korxona hujjatlarini olish (buyruqlar, farmoyishlar, boshqaruv organlarining qarorlari, ma’lumotnomalar, hisob-kitoblar, zarur hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari va boshqa hujjatlar), ichki auditni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan masalalar bo‘yicha kompaniyaning mansabdor va mas’ul shaxslaridan og‘zaki va yozma tushuntirishlar olish; Ichki auditni o‘tkazishda yordam berish uchun korxonaning tegishli mutaxassislarini jalb qilish.
<b>III.</b> Kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organni kompaniya faoliyatida aniqlangan firibgarlik va qonun buzilish holatlari to‘g‘risida o‘z vaqtida	<b>III.</b> Korxona kuzatuv kengashiga tashqi auditorlik tashkilotlarini xizmatini tanlash uchun texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda, ularning takliflarini baholashda ko‘maklashish, shuningdek auditorlik	<b>II.</b> Ichki audit xizmatining joriy davr va istiqboldagi asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha korxona kuzatuv

xabardor shuningdek, boshqaruvi samaradorligini bo'yicha berish.	qilish, korxona tashqi tashkilotini oshirish tavsiyalar	tekshiruvini uchun tashqi auditorlik tanlashda tavsiyalar tayyorlash.	o'tkazish auditorlik tayyorlash.	kengashiga kiritish.	takliflar
<b>III.</b> Kuzatuv kengashi qarorlari, korxona ijro etuvchi organining buyruqlari va boshqa qarorlari, korxona tashqi auditorining tavsiyalari va ko'rsatmalarining bajarilishini nazorat qilish.					

Korxonalarda ichki audit faqat ichki audit xizmati xodimlari tomonidan tekshirishlar va monitoring o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda korxonaning tasdiqlangan biznes-rejasining bajarilish holati, korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilinishi, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot holati, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashning to'g'riliqi, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya qilish, aktivlar holati, ichki nazorat holati o'rganiladi. O'tkazilgan ichki audit tekshiruvlari natijalari bo'yicha ichki auditning yig'ma hisoboti tayyorlanadi. Mazkur yig'ma hisobotda biznes-reja bajarilishining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tahlili, biznes-rejaning bajarilmasligiga aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar to'g'risida ma'lumot va rejaning bajarilmaslik sabablari, korxonaning boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning natijadorligi tahlili, korxona ustav(nizomi) talablariga rioya etilishi va korporativ boshqaruv sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik holatlarining tavsifi (korxona boshqaruv organlarining umumiy yig'ilishlari va majlislarini o'tkazilishi va boshqalar) ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, ichki audit natijalari bo'yicha yig'ma hisobotda yuqorida gilar bilan birga korxonaning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tekshirish natijalari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashning to'g'riliqini tekshirish natijalari, moliya-xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda qonunchilikka rioya etilishi hamda korxona ichki nazorat holatini tekshirish natijalari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar kiritilishi zarur. (2-chizma)

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1



**2-rasm. Ichki audit natijalari bo'yicha yig'ma hisobotda aks ettiriladigan ma'lumotlar.**

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Korxonaning mavjud mulki va mablag‘larining holatini tekshirish natijalari inventarizatsiya natijalariga asoslanishi va ular harakati, mavjudligi va saqlash holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim. Ichki auditning yig‘ma hisobotida korxona tarkibiy bo‘linmalari faoliyatini baholash, aniqlangan me’yordan chetga chiqishlar va qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar hamda tekshiruvni amalga oshirgan ichki auditor fikrini asoslovchi dalillar nusxalari kiritilishi shart. Ichki audit natijalari bo‘yicha yig‘ma hisobot ichki audit xizmati rahbari tomonidan tuzilib, ushbu hisobot kirish, analitik qism, oxirgi qism va to‘plangan dalil hujjatlari to‘plamidan iborat bo‘lmog‘i lozim. Mazkur ichki auditning yig‘ma hisoboti ichki auditorlik tekshiruvlari tugaganidan so‘ng o‘n kun ichida tayyorlanishi hamda ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri korxonaning kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Hisobotlar nusxalari tasdiqlanganidan keyin korxona rahbari (o‘rinbosari)ga taqdim etiladi. Shuningdek, korxona kuzatuv kengashi yoki rahbari ichki audit natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rishi hamda ko‘rilgan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri bajarilishi ichki auditorlar tomonidan nazorat qilinishi maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arens A., Lobbek Dj. Audit. /Per. s angl. pod red. Ya.V. Sokolova. – Moskva: Finansy i statistika, 2023. – 560 s.
2. Axmedjanov K.B. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida ichki auditning uslubiy usullari, tekshiruv ob’ektini tanlashning aniqlash masalalari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2024. – № 4, iyul-avgust.
3. Axmedjanov K.B. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish: iqd.f.nom. diss.avtoref. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi, 2022. – 76 b.
4. Dusmuratov R.D. Audit asoslari: darslik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2023. – 612 b.
5. Meliev I.I. Auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uslubiyati: muammo va yechimlar: monografiya. – Toshkent: VNEShINVESTPROM, 2024. – 191 b.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

6. <https://www.imv.uz>. - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti